

**UrDU Musiqa ta'limi yo'nalishi 402- guruh talabasi Bekchanova Sevaraning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Bolalar musiqa maktabining solfedjio mashg'ulotlarida musiqiy diktant yozish faoliyatini rivojlantirish va shakllantirish" mavzusida yozgan kurs ishiga Urganch shahridagi 6-son maktabi musiqa o'qituvchisi Ismoilova Xurshida tomonidan**  
**T A Q R I Z**

UrDU Musiqa ta'limi yo'nalishi 402- guruh talabasi Bekchanova Sevaraning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan Bolalar musiqa maktabining solfedjio mashg'ulotlarida musiqiy diktant yozish faoliyatini rivojlantirish va shakllantirish" mavzusida yozgan kurs ishi bilan tanishib chiqdim. Mazkur kurs ishida solfedjio mashg'ulotlarida intonatsion mashqlarni o'rganish usullari, musiqiy misollarni notaga qarab o'qib kuylash, musiqiy elementlarni eshitib aniqlash va tahlil qilish usullari, o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini o'stirishda musiqiy diktant yozish faoliyatini shakllantirish va musiqiy diktant turlari va yozish usullari haqida fikrlar yuritilgan.

Talaba Bekchanova Sevara kurs ishini yozishda mavzuga doir adabiyotlardan aniq va o'rinli foydalangan holda mavzuni to'la yoritgan.

UrDU Musiqa ta'limi yo'nalishi 402- guruh talabasi Bekchanova Sevaraning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Bolalar musiqa maktabining solfedjio mashg'ulotlarida musiqiy diktant yozish faoliyatini rivojlantirish va shakllantirish" mavzusida yozgan kurs ishidan san'at kollejarida, umumta'lim maktablarining Musiqa darslarida samarali foydalanish mumkin.

UrDU Musiqa ta'limi yo'nalishi 402- guruh talabasi Bekchanova Sevaraning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Bolalar musiqa maktabining solfedjio mashg'ulotlarida musiqiy diktant yozish faoliyatini rivojlantirish va shakllantirish" mavzusida yozgan kurs ishi ZioNET saytiga qo'yishga loyiq deb hisoblayman.



**Ismoilova X.**  
**Urganch shahridagi 6-son maktabi**  
**musiqa o'qituvchisi**

**UrDU Musiqa ta'limi yo'nalishi 402- guruh talabasi Bekchanova Sevaraning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Bolalar musiqa maktabining solfedjio mashg'ulotlarida musiqiy diktant yozish faoliyatini rivojlantirish va shakllantirish" mavzusida yozgan kurs ishiga Musiqa ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi Kazakov Adilbek tomonidan  
T A Q R I Z**

UrDU Musiqa ta'limi yo'nalishi 402-guruh talabasi Bekchanova Sevaraning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Bolalar musiqa maktabining solfedjio mashg'ulotlarida musiqiy diktant yozish faoliyatini rivojlantirish va shakllantirish" mavzusida yozgan kurs ishi bilan tanishib chiqdim. Mazkur kurs ishida solfedjio mashg'ulotlarida intonatsion mashqlarni o'rganish usullari, musiqiy misollarni notaga qarab o'qib kuylash, musiqiy elementlarni eshitib aniqlash va tahlil qilish usullari, o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini o'stirishda musiqiy diktant yozish faoliyatini shakllantirish va musiqiy diktant turlari va yozish usullari haqida fikrlar yuritilgan.

Talaba Bekchanova Sevara kurs ishini yozishda mavzuga doir adabiyotlardan aniq va o'rinli foydalangan holda mavzuni to'la yoritgan.

UrDU Musiqa ta'limi yo'nalishi 402- guruh talabasi Bekchanova Sevaraning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Bolalar musiqa maktabining solfedjio mashg'ulotlarida musiqiy diktant yozish faoliyatini rivojlantirish va shakllantirish" mavzusida yozgan kurs ishidan san'at kollejlarda, umumta'lim maktablarining Musiqa darslarida samarali foydalanish mumkin.

UrDU Musiqa ta'limi yo'nalishi 402- guruh talabasi Bekchanova Sevaraning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Bolalar musiqa maktabining solfedjio mashg'ulotlarida musiqiy diktant yozish faoliyatini rivojlantirish va shakllantirish" mavzusida yozgan kurs ishi ZioNET saytiga qo'yishga loyiq deb hisoblayman.

Taqrizchi:



**Kazakov A.**  
**UrDU Musiqa ta'limi kafedrası**  
**katta o'qituvchisi**

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
MUSIQA TA'LIMI YO`NALISHI

# **Kurs ishi**

**MAVZU: Bolalar musiqa maktabining solfedjio mashg'ulotlarida  
musiqiy diktant yozish faoliyatini rivojlantirish va shakllantirish**

Topshirdi:

Bekchanova Sevara

Qabul qildi:

Nurmatova M.A.

Urganch-2015

## **Reja:**

### Kirish

1. Solfedjio mashg'ulotlarida intonatsion mashqlarni o'rganish usullari
2. Musiqiy misollarni notaga qarab o'qib kuylash
3. Musiqiy elementlarni eshitib aniqlash va tahlil qilish usullari
4. O'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini o'stirishda musiqiy diktant yozish faoliyatini shakllantirish
5. Musiqiy diktant turlari va yozish usullari
6. Solfedjio mashg'ulotlarida pedagogik texnologiyalarni qo'llab diktant yozish

### Xulosa

## Kirish

Eshitilgan musiqani tahlil qilishning eng to'liq shakli bu musiqa diktantlaridir. Eshitib aniqlash kabi musiqa diktantlari o'quvchilarni musiqaviy eshitish qobiliyatlarining darajasini aniqlovchi bilim va malakalarning yakunidir.

Shunisi aniq ravshanki, diktant yozishning murakkab jarayoni (eshitaman-tushunaman-yozaman) nafaqat ma'lum bilim va musiqiy eshitish darajasini, balki maxsus tayyorgarlikni o'rgatishni talab qiladi. Solfedjio o'qitish uslubiyatining eng muhim vazifalaridan biri ham musiqiy diktantni qanday yozish kerakligini ko'rsatishdir.

Ma'lumki, yosh musiqachilarni tarbiyalashda solfedjio fani boshqa musiqiy nazariy fanlar qatorida muhim o'rinlardan birini egallaydi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda musiqa san'atini rivojlantirish, farzandlarimizning musiqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan qator dastur va rejalar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, milliy musiqa merosimizni asrab-avaylash va uning asosida xususan solfedjio fanini o'rganish, yoshlarni tarbiyalash kabi ezgu maqsadlarga qaratilgan. "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularni faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi" musiqa rivojiga yanada ulkan hissa bo'lib qo'shildi.<sup>1</sup>

Solfedjio fani bo'yicha mavjud o'quv qo'llanmalarining aksariyatidan farqli yangi chop etilayotgan qo'llanmalar mazmunida bolalarning musiqiy tafakkur poydevorini o'zbek milliy musiqamiz namunalari asosida shakllantirilgan.

Darhaqiqat, mazkur fan yuzasidan ijobiy natijalarga erishishda milliy musiqaning o'рни beqiyosdir va hozirgi zamon musiqa ta'limining talab va ehtiyojlariga asoslangan holda dars mavzulari shakllanmoqda. Solfedjio fani olingan musiqiy nazariy bilimlarga tayangan holda amaliy mashg'ulotlarda musiqiy diktantlarni turli usullar bilan o'quvchilarga yozdirishni o'rgatish nazarda tutiladi va mashg'ulotlar olib boriladi. Unda an'anaviy merosimiz xazinasidan o'rin olgan

---

<sup>1</sup> Mamirov K.A. Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi /to'plam/ 55-bet

qo'shiq, lapar, terma, yalla, mumtoz kuy va ashulalar, doston shuningdek, zamonaviy musiqa ijodkorligining deyarli barcha janrlariga doir namunalar tanlab olingan.<sup>2</sup>

Biz bilamizki, musiqaning mazmuni hayotiy taassurotlar tovushlar orqali ifodalangan fikr va his tuyg'ulardir. Zero, nota bo'yicha kuylash vositasida o'quvchilarning parda tozaligini his etish, tovushlar baland, pastligi va usul-ritmni idroklash singari zarur malakaviy ko'nikmalari o'stiriladi.

Shunday ekan, maxsus ta'limning dastlabki basqichlarida nota alifbosini o'rganish hamda yozma adabiyotlarni qo'llash vazifalari o'zaro tutashib ketadi. Bunda xususan, musiqiy nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalarning uzviy bog'liqligi o'z aksini topgan.

### **1. Solfedjio mashg'ulotlarida intonatsion mashqlarni o'rganish usullari**

Solfedjio mashg'ulotlarining asosiy vazifasi musiqiy nazariy bilimlarni egallash bilan birgalikda musiqiy eshitish qobiliyatlarining barcha tomonlarini o'quvchilarga o'rgatish, tarbiyalash va rivojlantirishdan iboratdir. Hozirgi davrda solfedjio mashg'ulotlarida ishning to'rtta asosiy turidan qoydalaniladi. Bular barchasi eshitish qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishga va notaga qarab notani o'qish va yozish malakalarini oshirishga yordam berishi lozim.

Har tomonlama kamol topgan hozirgi davr talabiga javob beradigan, o'zida ma'naviy boylikni mujassam etgan faol shaxsni shakllantirish vazifasini hal etishda musiqiy bilim muhim vositalardan biri ekanligiga tayangan holda bo'lajak musiqachilarga puxta bilim berish va ularni amaliy jihatdan yaxshi tayyorlash muhim ekanligi ko'zda tutiladi.

“Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o'rin tutib kelgan. Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi.

Eng muhimi bugungi kunda musiqa san'ati – navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda” – degan fikrlarni bildiradi Prezidentimiz

---

<sup>2</sup> Ibragimov O., Yunusov R. Solfedjio T.2004. 4-bet

I.A.Karimov.<sup>3</sup>

Musiqiy nazariy bilimlar musiqaning elementar nazariyasi va solfedjio mashg'ulotlarida egallanishi bilan bir qatorda, o'quvchilarning barcha musiqiy fanlar bo'yicha o'tiladigan darslariga yordam beradi. Bu esa musiqaga oid matnni ongli o'zlashtirishga imkon beradi. Barcha musiqiy fanlar: musiqaning elementar nazariyasi, solfedjio, musiqa asboblari ijrochiligi, xor, qo'shiqchilik va boshqa hamma fanlar ham bir-biri bilan bog'liq bo'lib, nazariy bilim va ko'nikmalarga asoslangan holda ta'lim tarbiya beriladi.

Solfedjio fani olingan musiqiy nazariy bilimlarga tayangan holda amaliy mashg'ulotlarda olib boriladi. Nota bilan kuylash jarayonida eng avvalo intonatsion aniqlik va musiqiy matnni to'g'ri ijro etishga qaratilgan.<sup>4</sup>

Nota bilan kuylash jarayonida eng avvalo intonatsion aniqlikka va musiqiy matnni to'g'ri ijro etishga erishish lozim. Solfedjio darslarida intonatsion mashqlarni avvalo tinglash, keyin jamoa bo'lib kuylash va shundan keyin aniqlangan kamchiliklarni tuzatayotib o'quvchilarga alohida aytirib ko'rish mumkin.

Mashqlarni ijro qilish shakllari ham turlicha bo'lish mumkin, masalan: guruh-guruh bo'lib kuylash, yakka tartibda, "zanjir" usulida, ochiq yoki ichdan kuylash, nota nomlari bilan kuylash unli tovush yoki so'zlar bilan kuylash, og'izni yumib yoki she'riy matn bilan kuylash.

Mashqlarni kuylash paytida harakat tezligi temp va usul aniq bo'lishi kerak. Intonatsion mashq o'zlashtirilgandan so'ng ritm va tempni o'zgartirish mumkin. Lekin akkord va intervallarni ijro etishda aniq ritmga bo'ysunmay ba'zi ko'rsatmalarga asoslanib o'rganiladi. Mao'qlarni kuylash jarayonida temp bilan bir qatorda shtrixlarni o'zgartirib kuylash mumkin. Masalan: "Legato", "staccato" bu usullar yaxshi o'zlashtirishga imkon beradi.<sup>5</sup>

Ovozni tayyorlash ya'ni sozlash vazifasi o'quvchilarni pardalarga moslashtirish va bu pardalarni yodda qoldirishda yordam berishdir. Ovoz sozlash turlicha usullar bilan o'tkaziladi, turg'un pardalarni kuylash, noturg'un pardalarni

---

<sup>3</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch T.2008. 140-141 bet

<sup>4</sup> Mamirov K.A.Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi /to'plam/ 98-bet

<sup>5</sup> Fridkin G. Chtenie s lista na urokax solfedjio M.1982. 4-bet

kuylab turg'un pardalarga echish, lad yoki tonallikni turli ritmda kuylash, intonatsion mashqlar, avvalo cholg'u asbobi jo'rligida yoki o'qituvchini o'zi kuylash orqali ijro etiladi. Keyinchalik esa o'qituvchi asosiy birinchi pardani ushlab turadi, o'quvchilar esa mashqni boshidan oxirigacha kuylaydilar. Yana bir usullardan biri istalgan balandlikda tonallik nomini ko'rsatmasdan, bo'g'inlar bilan kuylanadigan ovoz sozlash mashqi bo'lsa, yana biri oldingi tonallikdan yangi tonallikka o'tib olish.

Ovoz sozlash mashqlari boshlang'ich sinflarda qisqa va birmuncha o'yin holatda olib boriladi. Davomiy uzun mashqlar berish maqsadga muvofiq emas.

Intonatsion mashqlar nafaqat toza va sof kuylash malakalarini oshiradi. Ular nafasni to'g'ri olish, vokal malakalarini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Mashqlarning ayrimlari lad-tonallik doirasida mustahkam ohangni o'rganishga qaratilgan bo'lsa, qolganlari endi yoziladigan diktantda uchraydigan murakkabliklarni o'zlashtirishga qaratiladi.<sup>6</sup>

O'quvchilarni nima kuylashdan qat'iy nazar, bu intonatsion mashqlarni, gamma yoki nota o'qish misollarimi, solfedjio mashg'ulotlari davomida kuylash sifatini nazorat qilib kuzatib borish kerak.

Solfedjio mashg'ulotlarida kuylash sifatiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. Kuychan tovush bilan "legato" kuylash
2. Engil nafas olishni tashkil etish, nafasni to'g'ri olish, ya'ni ko'rsatilgan joylarda, jumla yoki frazalarda
3. "pianino"dan "mezzo forte" gacha engil tovush bilan kuylash,
4. Nota nomlarini yoki matndagi so'zlarni aniq va ravshan talaffuz etish
5. Ijroni ifodali bo'lishga erishishlardir.

Intonatsion mashq sifatida: qo'shiqlardan namuna, tetraxordlar (gammalarni to'rt tovushga bo'lib kuylash usuli) gammalar, kuy bo'lakchalari, interval, akkord, sekvensiyalar (ma'lum bir motiv yoki ohang gammaning har bir pog'onasidan, yuqoriga va pastga tomon, birin-ketin ijro etiladi) akkordlar ketma-ketligi bo'lishi mumkin.

Birinchi sinfdanoq o'quvchilarni musiqiy savodxonligini oshirish

---

<sup>6</sup> Baltaeva G.I. Solfedjio T.2006. 9-bet



mashg'ulotning barcha jarayonida o'rganilib boriladi. Oddiydan murakkab mashqlarga o'tish, o'rta registrda kuylash uchun qulay bo'lgan, lad chegarasidan tashqariga chiqmaydigan misollar kiritiladi. Ularni solfedjio qilish yo'li bilan o'rganish va kuylash kerak, chunki notalarni nomlari, shu notalarga mos tovush balandlik holatini ham aniqlab boradi. Mao'qlarni doskada, plakatga, ko'rgazmali qurol sifatida yoki kompyuterda ko'rsatiladi. O'quvchilarni musiqaning elementar nazariyasi haqidagi bilim doirasini kengaytirish va musiqiy kuylash qobiliyatini rivojlantirishda intonatsion mashqlar muhim o'rin egallaydi.

## **2. Musiqiy misollarni notaga qarab o'qib kuylash**

Musiqiy namunalardan olingan misollarni notaga qarab o'qib kuylash uchun musiqiy nazariy bilimlar etarli darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Musiqiy misollarni o'qib kuylash aynan solfedjio mashg'ulotlarining asosiy vazifalaridan biridir.

Musiqiy misollarni o'qish uchun lad-intonatsion eshitish qobiliyati, usul, ritm va metrni yaxshi sezib bilishi, qo'shiqchilik malakasi, musiqadagi fikr va mantiqni tushunishi, qismlar chegarasini seza bilishi, ijro paytida musiqiy misolning ifodali kuylab etkaza olish malakalari zarur bo'ladi.

Shunday qilib, notani o'qib kuylash uchun ma'lum darajada dastlabki tayyorgarlik talab etiladi. Shuni aytish joizki, yaxshi musiqiy qobiliyatlarga ega bo'lib turib ham o'quvchilar kerakli musiqiy savodga ega bo'lmasalar ya'ni tayyorgarliksiz musiqiy misollarni o'qib bilmaydilar.

Demak, musiqiy misol va namunalarni o'qib kuylash uchun o'quvchilar quyidagi malakalarni egallagan bo'lishlari kerak:

- 1.Ma'lum musiqiy savodga ega bo'lish;
- 2.Cholg'u asbobi yordamisiz kuylash;
- 3.Sof va toza tovushlar bilan kuylash;
- 4.Tovushlarni ongli ravishda tasavvur qilib, ularni balandligini anglab bilish malakasi;
- 5.Notalarni bilish va to'g'ri kuylash;

## 6.Ovoz chiqarish malakasiga ega bo'lish;

Notaga qarab o'qib kuylash jarayonining muhim davrlaridan biri bu o'quvchilarning psixologiyasidan kelib chiqqan holda, ularni xayolan tayyor bo'lish bosqichidir. Har bir o'quvchi ichki eshitish, tovushlarni balandga yoki pastga bo'lgan harakatini ongli ravishda fahmlab bilish, ichki eshitish qobiliyati bilan nota yozuvidagi tovushlarni tasavvur qilish, boshqacha aytganda yozuvdagi nota misolini oldindan xayolan eshita bilish malakasini egallash muhim shartlardan biridir.

Musiqa misollarini o'qib kuylash ustida ishlayotgan, o'qituvchi o'quvchilarining bosh miya qobig'ida qanday murakkab jarayon yuz berayotganligini hisobga olishi zarur. Musiqa vositasining eng muhim jihati ham shundaki, u barcha organizmdagi o'sish jarayonini boshqaruvchi bosh miya yarim sharlari faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkaza oladi.

Musiqa misollarni kuylashda o'quvchi oldin notani ko'rib u bilan tanishadi, albatta oldin tushunib olishga harakat qiladi. Keyin bu notalarni tovush tasavvuriga aylantiradi va undan keyin esa ijro etadi. Oddiy musiqiy namunalardan boshlab murakkab misollarni kuylashga erishish lozim. Qiyinchiliklarni o'stirib borishda katta chidam, reja asosida ishlash puxta ketma-ketlik, yangi murakkabliklarga aql bilan yondoshib, o'zlashtirilgan malakalarni mashq qilib turish zarur bo'ladi.

Ma'lum bir tayyorgarlikni talab qiluvchi jarayonlardan biri hisoblangan "xayolan tayyorlanish" tarzidagi bosqichi har bir shaxs qobiliyatiga bog'liqdir. Kuyni balandga ko'tarilishi yoki pastga tushish harakatlaridan, ravon yoki sakrama harakatlaridan iborat kuyning to'liqsimon yo'li ichki eshitishda darhol unga javob uyg'otishi lozim. Buning uchun kuyni yo'nalishi bo'yicha kuzatib, uni bo'g'inlar bilan yoki unli tovushlar bilan kuylash mavzusi foydali hisoblanadi. Diqqat e'tiborni, ijodiy fikrni rivojlantirish uchun takrorlanuvchi kuy namunalari kuylash ancha samaralidir.

Ichki eshitish qobiliyatini rivojlantirish mashqlari faqat dastlabki bosqichda emas, balki o'qib kuylash misollar, kuy namunalarda, yangi intonatsiya ohanglar uchragan davrlarda ham zarur bo'ladi.<sup>7</sup>

---

<sup>7</sup> Baeva N., Zekrek T.Solfedjio BMM 1-2-sinf uchun L.1989. 3-bet

O'qib kuylash uchun musiqiy namunalarni tanlashda quyidagilarni ham hisobga olish zarur hisoblanadi, chunki o'quvchining ovoz tessiturasining imkoniyatlari turli yoshda turlicha bo'ladi. Ovozni shakllantirish va rivojlantirishda vokal imkoniyatlari, vokal qiyinchiliklari, ritm, temp va lad tuzilishlariga e'tibor bergan holda olib borish kerak. Vokal qiyinchiliklari deganda kuyning diapazoni va tessiturasini nazarda tutilyapti. Musiqiy namunaning janri ham katta ahamiyatga ega. Mavzular asosida tanlangan har bir misol xalq qo'shiqlari, ovoz uchun yozilgan vokal asarlari kuylash uchun qulay hisoblanadi, cholg'u musiqasi esa ijro uchun murakkabdir. O'qib kuylash orqali, o'quvchi shuningdek, milliy musiqa merosimiz namunalaridan foylanilgan holda ular bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yana bir qiyinchiliklardan biri bu asarning ritmi-ritmik tuzilish bilan birga uning shakli ham kuylashda qiyinchilik tug'diradigan murakkabliklardan biri hisoblanadi. O'quvchilar asosan sakkiz yoki o'n, o'n ikki taktli musiqa namunalarini tez o'rganadilar va kuylashga qulay, biron kengaytirilgan va qo'shimchalardan iborat murakkab, nokvadrat tuzilishdan ko'ra kuyning takroriy, kvadratli shakllari doimo engil idrok qilinadi.

Bunday ko'rsatkichlardan tashqari, o'qib kuylash mashqlarini ijro etishda to'g'ri tempni tanlash, kuylarning intonatsion va lad tuzilishini ham inobatga olish zarurdir. Musiqali namunalarni o'qib kuylash jarayonlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va yaxshi natijalarga erishish uchun o'quvchilarni ma'lum bir tartib qoidalarga o'rgatish kerak bo'ladi.

Avvalambor kuylash uchun tanlangan namunalarni murakkab tomonlariga e'tiborni qaratib uni ko'rib chiqish kerak, undan keyin musiqiy misolni tahlil qilish kerak. Tahlil qilganda namunaning ladi va tonalligini aniqlash, undagi kalit belgilari, tasodifiy belgilar ladni garmonik, melodik yoki tabiiy turini aniqlab, uning o'ziga xos ritmik shakliga rivojlanish yo'nalishiga, shtrixlari va dinamikasiga e'tiborni qaratish kerak.

Tonallikda kuylash, ya'ni gamma va uning turg'un va noturg'un pog'onalarini kuylash orqali o'zini moslash, to'g'ri va sof kuylashga erishish kerak, bunda kuyning birinchi takrorini, tasavvur qilish kerak. Kuylash paytida albatta o'quvchi o'zini

tinglash qobiliyatini shakllantirishi zarur, o'zini nazorat qila bilishi kuyning oqimini, mantiqiy rivojlanishini his qilish chiroyli va sof kuylash malakalarini shakllantiradi. Mashg'ulotlar jarayonida musiqani to'g'ri o'qish va yozish malakalariga ega bo'lish aynan notaga qarab o'qish orqali shakllanadi. Olingan musiqiy nazariy bilimlar har bir mashg'ulotda mustahkamlanib boriladi.

### **3. Musiqiy elementlarni eshitib aniqlash va tahlil qilish usullari**

Solfedjio mashg'ulotining yana bir nihoyatda muhim shakllaridan biri eshitib aniqlash va tahlil qilish kabi ish shakllaridir. Bunda o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonida egallagan barcha bilim va malakalari birlashtiriladi. Ammo, eng muhimi, eshitib aniqlash jarayonida musiqiy ta'limning turlicha elementlari va ular o'rtasidagi aloqalar anglanadi, tushuniladi va aniqlanadi.

O'quv mashg'ulotlari jarayonida quyidagi ta'lim turlarini qo'llash tavsiya etiladi:

- notalar vositasida to'g'ri va sof kuylash;
- kuy va usullarni mustaqil o'rganib yod olib aytish;
- keltirilgan mashqlarni muntazam bajarish;

Musiqiy ifoda vositalardan tovush, tovushqator interval, ohang, usul bezaklarni alohida va kuylar tarkibida eshitib aniqlash kerak. Parda soziga tayangan holda o'quvchilarning kuylashida ohang tozaligiga erishish kerak. Buning uchun har bir misolni xonish qilishdan oldin avval uning asosiy tonalligini aniqlab, sozlab, bosh pardasidan kuylab moslashtirish zarur. O'quvchilarni yakka hamda guruh tarzida aytishlarini almashtirib borish kerak.<sup>8</sup>

Eshitib aniqlash ishning asosiy vazifalaridan biri ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan idrokni tarbiyalash, yangi musiqa asarlaridagi namunalar bilan tanishtirish, ma'lum bir tushunchalarni shakllantirishi uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi turlicha tovush hissini xotirada to'plab bilish kabilardir. Shuningdek, kuyni eshitish orqali ulara musiqiy tafakkur rivojlanadi, musiqani anglash, taqqoslash, umumlashtirish hamda xotirani rivojlantirishga yordam beradi. Eshitib aniqlash ishi

---

<sup>8</sup> Ibragimov O., Yunusov R. Solfedjio T. 2004. 5-6 bet

ayniqsa o'quvchilarni garmonik eshitish qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ohang va ohangdosh tovushlarni rang-barangligi ularni o'zaro aloqalarini o'zlashtirish-tovushlarning butun bir qonunlarini bir vaqtda eshitgandagina mumkin bo'ladi. Asarni ijro qilish emas, balki uni eshitish va eshitilgan musiqani keyinchalik anglash o'quvchi qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy yo'lidir.

O'qitish amaliyotida eshitib aniqlash ishining ikki turi ya'ni tahlil qilish va o'zlashtirish uni turlicha elementlarini o'zaro aloqasini aniqlashdan iboratdir.

Tahlil qilishning bu turida tanlab o'rganiladigan musiqiy misolni turli elementlar bilan almashtirib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Masalan, interval eshitib aniqlashda va tahlil qilinayotganda katta va kichik intervallarni sof intervallar bilan sekunda yoki tertsiyadan keyin oktava yoki septima bilan almashtirib ijro qilish kerak. Kengligi va dissonansligi (noohangdoshligi) yoki konsonans (ohangdosh) intervallar bir biriga qarama-qarshi bo'lib intervallar eshitilishini tezroq va yaxshi esda saqlab qolishga yordam beradi.<sup>9</sup>

Shuningdek, major tonalligini minor tonallik bilan taqqoslab tahlil qilish mumkin. Akkordlarni aniqlashda ham shu usul bilan foydalanish mumkin. Major uchtovushlikni minor bilan tanikani dominantaga akkordlari bilan taqqoslash mumkin.

37 Salobatli Tol yog'ochdan ot qilib. O'zbek xalq qo'shig'i

38 Tez Bol ari. K.Abdullaev

Kuyni tahlil qilishda hamda to'g'ri kuylashda asosiy elementlarni aniqlash zarur. Kuydagi tashqi belgilarga e'tibor bergan holda qisqa va aniq ma'lumot to'planadi. Kuydagi xarakterni birinchi ijrodayoq aniqlash zarur. U qo'shiqmi yoki marsh, vals, alla, terma janrimi, kuyda mavjud bo'lgan takroriy jumla yoki fraza, nechta taktdan iborat, sekvensiya (turli pog'onadan takrorlanuvchi motiv, ohang)

<sup>9</sup> Xamroev I.X. Bir ovozli solfedjio T.1980. 4-bet

bormi, avj kabi tushunchalarni aniqlash zarur.

#### **4. O'quvchilarni musiqiy qobiliyatlarini o'stirishda musiqiy diktant yozish faoliyatini shakllantirish**

Solfedjio mashg'ulotlarida diktant yozishning ahamiyati juda katta. Eshitilgan musiqani tahlil qilishning eng to'liq shakli bu musiqa diktantlaridir. Eshitib aniqlash kabi musiqa diktantlari o'quvchilarni musiqiy-eshitish qobiliyatlarining darajasini aniqlovchi bilim va malakalarning yakunidir.

Bolalar musiqa maktablarining solfedjio mashg'ulotlarida musiqiy diktant yozishni avvalo ritm, ya'ni usulni mustahkamlash maqsadida ritmli diktant yozishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Dars hajmining deyarli uchdan bir qismi diktantlarga ajratishi zarur. Diktant yozish jarayoni va ularni ma'lm bir tartib qoida asosida olib borilgandagina kerakli natijalarga erishish mumkin.

Diktantlarni yozdirish uchun o'qituvchi reja asosida musiqiy namunalarni tanlab olishi va har bir bosqichda ma'lum bir murakkabliklar o'zlashtirilishi kerak. Diktant yozish bo'yicha o'qituvchining oldida bir qancha vazifalar bo'lib, ular quyidagilardan iborat. Masalan, eshitilgan musiqa bilan uning nota yozuvi o'rtasidagi bog'liqlikni yaratish va mustahkamlash, ya'ni eshitilgan musiqani anglab bilishga o'rgatish. Shuningdek, xotira va ichki eshitish qobiliyatlarini rivojlantirish, diktantlardan musiqaning elementar nazariyasi, solfedjio va boshqa musiqiy fanlarda olingan bilim va malakalarni mustahkamlash va amaliy o'zlashtirish vositasi sifatida foydalanishdir. Demak, musiqiy diktantlar o'quvchilarda eshitib aniqlash, tasavvur qila bilish, ichki eshitish qobiliyatini, musiqiy xotira, lad, metr, ritm, temp kabi tushunchalarni rivojlantirishda va shakllantirishda tarbiyaviy ahamiyatga ega.<sup>10</sup>

Diktant yozish jarayonida eshitish qobiliyatlarining turlicha tomonlari va psixologik faoliyatni turlicha xususiyatlari ishtirok etadi. Masalan, shulardan biri eshitilgan musiqani anglashni ta'minlovchi bilim va tushuncha, eshitilgan musiqani eslayotib, aniqlash imkoniyatini beruvchi xotira, shuningdek, tovush, ritm va boshqa musiqiy nutq elementlarini xayolan eshitish va ularni tasavvur qilish qobiliyatidir. Tasavvur asosan, ichki eshitish qobiliyatidir. Bundan tashqari diktant eshitilgan

---

<sup>10</sup> Fridkin G. Muzikalnie diktanti M.1973. 2-bet

musiqani savodli ravishda yozishga imkon yaratuvchi nazariy bilimlarni mustahkamlovchi vositadir.

Diktant yozishga kirishmasdan turib, o'qituvchi o'quvchilarni bu ishga tayyor ekanligiga, avvalgi mashg'ulotlarda aniq ko'zga tashlanib, yuqorida aytib o'tilgan musiqiy qobiliyatlarining barcha tomonlari bo'lishi kerak.

Diktant ustidagi ish asosan mashg'ulotlarda bo'ladi, shuning uchun diktant yozish jarayonini to'g'ri tashkil qilish sinfda o'quvchi tomonidan shu jarayonga muvofiq muhit yaratilishi kerak. Noto'g'ri malakalar va diktant yozishning noto'g'ri usullari shakllanishiga aslo yo'l qo'ymaslik kerak. Ko'pgina o'qituvchilarning tajribalari diktant yozish jarayonining quyidagi uslublarini tavsiya qilishga imkon beradi.

Eng avvalo o'quvchilar diqqatini bir joyga jamlash, ijro qilinadigan musiqani diqqat bilan tinglashlari zarur. Oldiniga o'quvchilarga kichik hajmdagi kuylar beriladi. Ularni 3-4 marta takrorlab ijro etganda o'quvchilar yoddan yozib olishlari kerak. Har bir takroriy ijro orasidagi vaqt intervalini aniqlab qo'yib ijro etiladi.

Bolalar musiqa maktabida solfedjio mashg'ulotlarida kichik sinflarda diktantlarni boshlanishi va oxiri tonika ya'ni birinchi pog'ona bo'lishi zarur. Keyinchalik, diktantlar ladning uchinchi yoki beshinchi pog'onasidan boshlanadigan misollar tavsiya etiladi. Diktant yozish uslubini mukammal o'rgangandan keyin murakkab ritmik usulga ega yoki murakkab tuzilishga ega kuyli misollar o'quv jarayoniga kiritiladi. Bir tonallik yoki modulyatsiyali kuyli misollar fortepiano mutaxassislikda yuqori sinfda o'qiyotgan o'quvchilarga diktant qilib kuyli misollar yozdirish lozim.

Birinchi sinfda 4,6,8 takt hajmdagi misollar oddiy o'lchovlar 2,3 hissali, chorak sakkiztalik, yarimtalik, o'n oltitalik cho'zimli kuyli misollar yozdirish lozim. Keyingi sinflarda nuqtali notalar qo'llanilgan kuylar, uchinchi sinfda esa ikki va uch diez hamda bemolli tonalliklarda turli ritmik guruhlariga ega kuylar tanlanib, diktant sifatida yoziladi. To'rtinchi sinfdagi ritmlarni murakkabligi, kuylarning harakati ravon sakramalar sof4, sof5, kichik va katta seksta va oktava oralig'ida qo'llanilgan

kuyli misollarni o'quvchilar yoza bilishi va aniqlab bilishlari lozim.<sup>11</sup>

O'quvchilar diktant yozishda albatta dirijorlik qilib yozishga o'rgatilishi lozim. O'quvchilar diktantni esda saqlab qolganligiga ishonch hosil qilgandan keyin ularga o'qituvchi bir necha bor taktolab bergandan keyin yozdiradi, buni o'qituvchi qat'iy va doimiy nazorat qilib turishi kerak. Xotiradan yozilgan diktant to'g'ri malakani tarbiyalaydi, xotira va ichki eshitish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

O'quvchilarda o'z-o'zini tekshirish qobiliyatini tarbiyalash, o'zini xatosini o'z topa olish kabi malakalarni hosil qilish juda muhim. Sinfda partalar qatori orasidan o'tayotib va diktant yozish jarayonini kuzatayotib, o'qituvchining o'zi noto'g'ri yozilgan joylarini tuzatib aytishi mumkin emas, faqat qaysi taktida xato borligini aytib o'tishi mumkin. U o'quvchining diqqatini jalb qilish yo'llarini izlashi, noto'g'ri joylarini o'zi to'g'irlashga majbur qilishi lozim.

Solfedjio mashg'ulotida o'quvchilar diktantni jim o'tirib, ichki eshitishga asoslanib yozishlari kerak. Ammo, ayrim o'quvchilar bu qobiliyati etarli bo'lmagani uchun diktant matnini ularga kuylatib ko'rish mumkin. Chunki, tovush balandliklari munosabatlarini aniq farqlashga o'rgatib borish lozim.

Diktant yozishda dirijorlik qilib yozishni o'rgatishi kerak, chunki o'quvchi diktantni ijro qilish kerak. Quyidagi takt boshlangan joylarni aniq bilishi zarur.

Diktant yozilgandan keyin tekshirish jamoa shaklida yoki alohida tekshiriladi.

Diktant butun sinf bo'lib kuylash yoki sinf oldida o'qituvchini o'zi to'g'ri javobni aytib beradi. Bu esa tekshirishning jamoa shakli. Agarda o'qituvchi o'quvchilarning daftarlarini yakkama-yakka teko'irsa, har bir o'quvchining o'zi daftarga qarab o'zining diktantini chalib bersa va mustaqil xatolarni tekshirib to'g'rilasa, bu yakka tekshirish shakli deyiladi.<sup>12</sup>

Musiqani yozish malakalarini tarbiyalash o'qituvchi uchun mas'uliyatli va murakkab vazifalardan biri bo'lganligi uchun o'quvchini musiqani yozishga o'rgatish zarur. Buning uchun ayrim amaliy usullardan foydalanish kerak:

1.Misolni tuzilishi, shakli. Bunda o'quvchi kuyni tuzilishini, tuzilma jumlasini va

---

<sup>11</sup> Xamroev I.X. Musiqa diktantlari T.1980. 4-5 bet

<sup>12</sup> Baltaeva G.I. Solfedjio T.2006.. 13-14 bet



frazalarning sonini, xotima davralarning xarakterini aniqlab oladi.

2.Lad.Misolni ayrim qismlari va davriyalarni lad ahamiyatini aniqlash, diktant yozish ishini asosi, yozilgan diktantni tekshirish. Bunda o'quvchilar har bir fraza bosh va yakuniy notani aniqlab yozish,shaklni hosil qiluvchi takroriylik, sekvensiya kengaytirishi boshqa elementlarni topish va ulardan foydalanishi kerak.

3.Shuningdek, kuyning tayanch tovushlariga tayanib, ular bo'yicha kerakli tovush yoki ayrim intonatsion davralarni, kuyning yo'nalishini anglab yoza olish. Yo'nalish tarkibidagi ravon va sakrama harakat, kuyni bir tovushda turib takrorlash, yordamchi va o'tkinchi tovushlarni aniqlash.

4.Intervallar.Kuyni yozishda interval turlarini eshitib to'g'ri yozib bilish konsonans va dissonans, mukammal va nomukammal intervallarni farqlash va yozishdir.

5.Metro-ritm. Diktant yozish uslubiyatida tovush balandliklari va metro-ritm munosabatlari bir-biridan ajralgan emas, balki birgalikdagina yaxlit holda kuyni mantiq va mazmunini hosil qilishdan kelib chiqish zarur.

Diktant uchun namunalarni o'qituvchi dasturda ko'rsatilgan darsliklardan olib foydalanishi mumkin yoki shunday murakkablikdagi musiqiy namunani o'zi mustaqil ravishda tanlab o'quvchilarga yozdirishi mumkin.

Hozirgi davrda barcha mashq o'qib kuylash va diktant yozish uchun tanlangan musiqiy namunalar o'zbek xalq musiqa ijodi namunalaridan maqom yo'llaridan mumtoz kuy va qo'shiqlardan keng foydalanilmoqda. Bunday darsliklarda bosqichma-bosqich murakkablashuviga rioya qilingan tartibda tuzilgan.

Bunda maqom namunalari va xalq ijodiga mansub kuy qo'shiqlar, doston, termalardan parchalar, vazn-usuli, pardalar uyushmasi va kuy shakli,shuningdek, shartli holda "usulsiz" deb nomlangan kuylar o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi bir muncha qiyin kechadi.<sup>13</sup>

Bularni engish yo'lida doira usullariga alohida e'tibor qaratiladi. O'zbek xalq mumtoz musiqasiga xos usullarni "bak-bum" bo'g'inlaridagi hamda notalar vositasidagi har xil ifodali ko'rinishlaridan musiqiy diktantlarni yozish uchun unumli

---

<sup>13</sup> Ibragimov O.,Yunusov R.Solfedjio T.2004. 6-7 bet

foydalanish tavsiya etiladi.

## **5. Musiqiy diktant turlari va yozish usullari**

Diktant yozish o'qituvchi va o'quvchi uchun ma'suliyatli va qiyin masalalardan biri bo'lganligi sababli amaliy uslubiy jihatlarini inobatga olgan holda diktantning turli shakllaridan foydalanish mumkin. Masalan, qismlarga ajratilib yoziladigan shakli, dastlab og'zaki tarzda tahlil qilingan ko'rgazmali, xotirani rivojlantirish uchun mo'ljallangan diktant shakllaridir.

Ko'rgazmali diktantni o'tkazishning maqsad va vazifasi bu o'quvchilarga diktant yozish jarayonini ko'rsatishdir. Diktant o'quvchining o'zi tomonidan o'tkazilishi yoki biron bir o'quvchiga topshirilishi mumkin. Diktant doskaga yozilib, eshitilayotgan musiqani, yozish yo'llari va ketma-ketligi tushuntirilib boriladi. Ishning bu shakli yangi tanishib, barcha uchun umumiy bo'lgan diktant yozish jarayoni yoki akkord kifoya qiladi.

Diktantning yana bir turi og'zaki tahlil qilingan diktantdir. Bunda o'quvchilar diktant misolini tahlil qilayotib nafaqat uning tempini, o'lchovini, tuzilishini, balki ba'zi intonatsion aylanmalarini, ritmik shakllarini ham tushunib oladilar. Ularni chalib yoki kuylab ham beradilar. Bunda albatta o'qituvchi yordami va nazorati ostida ish olib boriladi.

Xotirani rivojlantirish uchun mo'ljallangan diktantlardan ko'proq va unumli foydalanish katta ahamiyatga ega. Yozish ishlarining barchasini ichki eshitish qobiliyatlariga asoslangan holda, xotirani rivojlantirishga qaratilgan bo'lishiga qaramasdan, ba'zan buning uchun ishning maxsus shakllarini qo'llash ham foydali hisoblanadi.

1. Misol 2-3 marta chalinadi, uni eslab qolish darajasi tekshiriladi, shundan keyin har bir o'quvchi nimani eslab qolgan bo'lsa shuni yozadi.

2. Misol 3-4 marta chalinadi, ba'zi esda qolmagan elementlar yodga solinadi va yana o'quvchilar yozishga kirishadi. Bunday yozish turida o'quvchi mukammal kuyni o'zi yozish malakalarini egallaydi. Vazifani o'zgartirib, misolni yozib o'tirmasdan uni fortepianoda chalib berish taklif qilinishi mumkin.

Asta-sekinlik bilan xotira darajalarini orttira bori, misollarni oqilona tanlash juda muhim hisoblanadi. Kuyni tuzilishi sodda bo'lishini hisobga olib, ishni kichik hajmli oddiy shaklli qo'shiq, motivlardan iborat bo'lgan misollarni yozishdan boshlamoq kerak.

Ijodiy diktantlar. Bunday diktantlar berilgan birinchi jumлага javoban ikkinchi jumlasini yozish, ma'lum bir janrda 4 yoki 8 taktli kuylar yozish, masalan: vals, marsh, qo'shiq, terma, alla. Ba'zida berilgan mavzuga turli variantlar yozish, berilgan matnga qo'shiq kuyini bastalash, tanish kuylarni notaga olishga harakat qilish kuyga akkord va jo'rlik tanlab yozish kabi vazifalardan iborat bo'lishi mumkin.

Demak, diktantlar shakli quyidagicha bo'lishi mumkin: oddiy diktant, tanish kuy yoki qo'shiqni notaga olib yozish yoki cholg'u asbobida ijro etish, tanish kuy yoki qo'shiqni cholg'u asbobida ijro etmasdan turib notaga olish, notaga qarab yod olingan qo'shiqni diktant qilib yozish, og'zaki diktant, xotirani rivojlantiruvchi diktant ritmik diktant, tahliliy diktant shakli.<sup>14</sup>

Bir ovozli diktantlar juda keng qo'llaniladigan diktant uslublaridan biridir. Bir ovozli diktantlarni yozishga tayyorgarlik ishlari oldindan tuzilgan reja asosida maqsad va vazifalari aniq belgilangan holda olib boriladi. Bu ishning vazifasi diktant yozish jarayonini to'g'ri tashkil etish bo'lib bir qancha usullarni o'z ichiga oladi, masalan, nota matnini ko'chirish.

Nota matnini ko'chirish usuli dastlabki ishni olib borish jarayonida boshlang'ich sinflarda qo'llanilgani ma'qul. Bunda o'quvchi oldiga qo'yilgan vazifalar juda oddiy bo'lib berilgan notali misollarni to'g'ri va chiroyli ko'chirish kerak bo'ladi. Bunda o'quvchining nota yozish dastxatini shakllantirish nota tayoqchalari, bayroqchalari belbog' kabi musiqiy elementlarini to'g'ri yozish, notalarning past balandligi, nomi va ritmik guruhlash kabi barcha qoidalarga rioya qilib tartibli toza yozishni o'rganishdan iboratdir.

Albatta buni uchun "Solfedjio" mashg'ulotlari uchun yozilgan darslik to'plam, maxsus musiqali diktantlar to'plamlaridan foydalanib, sinfda yozilgan kuyli misollar asos bo'lib xizmat qilish mumkin. Vazifalar oddiydan murakkablashib boradi. Sekin-

---

<sup>14</sup> Fridkin G. Muzikalnie diktanti M.1973. 2-bet

asta xor asarlaridagi ikki ovozli xordan bir ovozi ko'chirilib o'rganiladi. Bunda juda muhim bo'lgan bitta uslubiy qoidani esdan chiqarmaslik kerak, ya'ni faqat o'quvchilarga yaxshi tanish bo'lgan asosan maktab repertuari juda qulay, yozishda ularning ichki eshitish qobiliyati tomonidan aniq tasavvur qilinishi mumkin bo'lgan kuylardan foydalanish zarurdir.

Bir ovozli diktant yozishda uning tuzilishi katta ahamiyatga ega. O'quvchi kuyni yoddan yozish uchun kuyning tuzilishini yaxshi bilishi kerak. Unda nechta motiv, ibora, jumla borligini, kuyning tugallanish xotima qismlarining xususiyatlarini bilishi lozim. Shuningdek, jumla iboralar bilan yodlab yozganda tovushlarning ladga asoslangan aloqalariga turg'un tovushlarning ahamiyatiga e'tibor berish kerak.<sup>15</sup>

Bir ovozli diktant yozishga tayyorlanishda fortepianoda kuyni chalish va keyin notaga olish usulidan foydalanish mumkin. Shuningdek, tanlangan tanish kuy yoki qo'shiqlarni transpozitsiya qilish mashg'ulot samaradorligini yanada oshiradi.

Diktant yozishda tovushlarni ko'tarilishi yoki pastga bo'lgan harakatini aniqlashga o'rgatish murakkab jarayonlardandir. Bunda kuy yo'nalishlarini har xil chiziqlar yordamida yozish, notani o'qib kuylash vaqtidagi qo'l harakatlari "zinapoya" – ya'ni qo'l bilan tovushlarni chiqib tushishini ko'rsatish usulidir. Bunda kuyning yo'nalishini o'quvchi o'zi his qilgan holda qo'li bilan ko'rsatish orqali esda qoldirib diktantni yozadi.

Diktant yozishda ladni tushunish kuy yo'nalishini his qila bilish, undagi ravon va sakrash holatlarini aniqlab olish va to'g'ri yozish ritmik va garmonik diktant shakllarini to'g'ri aniqlab yozish orqali o'quvchilarning umumiy musiqiy tarbiyasini shakllantiradi.<sup>16</sup>

O'qituvchi mashg'ulot jarayonida diktantning yozishdagi usullaridan yana biri "xatoli" diktantdan ham foydalanish mumkin. Bunda o'qituvchi kuy yoki qo'shiqni ijro qilib berganidan keyin o'quvchilar uni nota nomlarini aytib kuylab berishadi, undan keyin o'qituvchi doskaga ataylab ritmik yoki kuyning o'zida ayrim xatolar bilan yozadi. O'quvchilar esa bu xatolarni topib, aniqlab, to'g'ri javobi bilan

---

<sup>15</sup> Xamroev I.X. Musiqa diktantlari T.1980. 4-5 bet

<sup>16</sup> Baltaeva G.I. Solfedjio T.2006. 14-bet

yozishlari kerak.

Ikki ovozli diktantlarni yozishda o'quvchi bir ovozli kuylarni yaxshi eshitib yoza bilishi zarur. Shuningdek, ularda interval va akkordlarni to'g'ri eshitib aniqlash qobiliyati ham rivojlangan bo'lishi kerak. Chunki, bu qobiliyatlarini shakllantirmagan o'quvchi ikki ovozli diktant yozish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.

Ikki ovozli diktantlarni yozishda dastlabki ish jarayonini har xil uslublar yordamida boshlash qo'llaniladi. Ayrim o'qituvchilar mashg'ulotlarda har bir ovozni alohida bir ovozli uslubini qo'llab yozish uslubini o'rgatadilar. Boshqalari esa ularda qarama-qarshi uslubni ya'ni ikki ovozni faqat garmonik tuzilishda eshitalishiga e'tibor berish zarurligini aytadi, ya'ni interval qatorini notasiz interval raqamlarini belgilashni taklif qiladi.

Ko'p ovozli diktant yozish barcha guruh va bo'limlar uchun shart emas. Lekin garmonik eshitish uchun garmonik eshitish qobiliyatini o'stirish uchun barcha guruhlarda yozma garmonik eshitib tahlil qilish uslubini qo'llash mumkin.

Keyinchalik diktantni jadval asosida kuy va ovozning yozilishiga o'tish kerak. Bu erda ko'p ovozli ishda ularning ichidan bas ovozni ya'ni eng past asos bo'lib turuvchi ovozni topib, aniqlab uni qaysi akkordga xos ekanligini raqam va belgilar bilan yozib qo'yilishi yaxshi natija beradi.

Ritmik diktantlarni yozishda maxsus ritmik mashqlardan foydalanish mumkin, ritmni qo'ymasdan qalam bilan taqqallatib chiqish yoki "ta-tata" kabi bg'g'inlar yordamida ritmni aniqlab yozish. Albatta ritmik diktant ma'lum kuyni ijro qilish asosida yozilishi kerak. Mashg'ulotlarni milliy musiqa namunalaridan foydalangan holda olib borish dolzarb vazifalardan biridir.

Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, keltirilgan nota yozuvlari og'zaki an'anadagi ijodkorlikni mahsuli bo'lmish folklor musiqasi, mumtoz cholg'u va ashula namunalari, maqomlardan parchalar, bastakorlik asarlaridan namunalar bo'lishi mumkin. Ulardagi usul ritm murakkabligi yoki nota yozuvlarida keltirilgan farshlag, bu naqshlar, milliy musiqamizga xos "qochirim", "nola"larning ko'rinishlari deb qabul qilmoq kerak.

Milliy musiqaga xos usullarni o'rganish yuqori sinflarda qo'llaniladi va o'qish

ko'nikmasini hosil etilgach erishiladi. Chunki, bu yozuvda usul zarblarining joylashuvi aniq bo'lib, o'quvchining ritm hissiyotini yanada teranlashtiradi.<sup>17</sup>

Solfedjio mashg'ulotlarini samaradorligini oshirish uchun o'qituvchining turli metodlar pedagogik texnologiyalarida ayniqsa keng foydalanish maqsadga muvofiq.

## **6.Solfedjio mashg'ulotlarida pedagogik texnologiyalarni qo'llab diktant yozish**

Solfedjio mashg'ulotlarida o'quvchilarga diktantni turli turlarini yozishda ularni to'g'ri yozishga o'rgatish jarayonida musiqiy cholg'u asbob bilan bir qatorda kompyuter texnologiyasi bilan mashg'ulotni o'tkazish yaxshi natijalar berishi mumkin.

Solfedjio mashg'ulotlarini samaradorligini oshirish uchun o'qituvchining turli interfaol metodlar ilg'or pedagogik texnologiyalarida ayniqsa kompyuter texnologiyasidan keng foydalanish maqsadga muvofiq vaqti-vaqti bilan ijrodagi kuy va qo'shiq namunalarini yozib tasmasi yoki audio, video yozuvlar orqali tinglab yozish tavsiya etiladi.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o'qituvchi va o'quvchi-talabanning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiya tushuniladi. O'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishida qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa chiqara olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh ularga baho bera olsa, o'qituvchi ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik kiritish bo'lib, uni amalgam oshirishda interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi. Bu metodlarninig o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning

---

<sup>17</sup> Ibragimov O., Yunusov R.Solfedjio T.2004. 8-bet

birgalikda faoliyat ko'rsatishi bilan amalgam oshiriladi. Pedagogik texnologiya faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq bo'lib qolmasdan, balki o'qitish jarayonida qo'llanilishi zarur bo'lgan O'zTV, kompyuter, turli texnikalardan foydalanish bilan belgilanadi.

Har bir dars, mavzu, o'quv fanining o'ziga xos texnologiyasi bo'lib, bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishishiga qaratilgan pedagogik jarayondir

Guruhlarda ishlash – ta'lim oluvchilarning faoliyatini tashkil qilishning shunday shakli, u, o'quv guruhlarini, ma'lum bir vazifani ochish hamkorlikda uchun, vaqtinchalik mikroguruhlariga ajratishni talab qiladi. Ta'lim oluvchilarga, qo'yilgan vazifaning mazmunini, uni yechish yo'llarini va usullarini belgilashni muhokama qilish taklif qilinadi.

Bunda ilgari surilayotgan takliflarni hamkorlikda baholash orqali ularni amalga oshirish, bajarilgan ishlarni birgalikda tahlil qilish, hamkorlikda topilgan natijani oldin shakllantirib, so'ngra taqdim etish so'raladi.

Guruhlariga bo'linib ishlash, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda, dolzarb pedagogik, psixologik va ijtimoiy maqsadlarga erishishni ta'minlaydi. Eng avvalo, ta'limning guruhli shakli "ta'lim beruvchi – ta'lim oluvchi" dialogidan voz kechishni va "ta'lim beruvchi-guruh-ta'lim oluvchi" ko'rinishdagi uch tomonlama o'zaro munasabatga o'tishni nazarda tutadi.

O'quv guruhi, tarkibi bo'yicha harakatchan kichik guruhlariga bo'linadi va ularning har biri o'zicha o'quv materialini o'zlashtiradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, shu tufayli siz bilan ta'lim oluvchilar o'rtasida ancha mustahkam aloqa o'rnatiladi, shaxsiy va bir vaqtning o'zida ta'lim jamoaviy ruhiy holat kuchayadi. Har bir ta'lim oluvchining potentsiyal imkoniyatlarini rivojlanishi va amalga oshirilishi ta'minlanadi:

Ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi harakati tashkillashadi, bu esa, o'quv-bilish jarayonini faollashtirishga, ularda empatiyani, kommunikativlikni shakllantirishga ko'maklashadi:

Vazifani hamkorlikda bajarish jarayonida, ta'lim oluvchilarda, o'rtoqlari

tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qilishga motivatsiya paydo bo'ladi. Ta'lim oluvchilar bir-biriga savollar beradilar, shuning uchun, ular savollarni shakllantirishni bilishlari zarur, javoblarni- argumentlashtirishni, tushunishga erishish uchun esa, ular bir-birini diqqat bilan eshitishlari kerak. Guruhlarda ishlash paytida, zarurati bo'lganda, ta'lim oluvchilar yordam berishlarini so'raydilar va boshqalarga yordam berishni o'rganadilar.

Guruhlarni faoliyat ko'rsatishda vaqt omilini hisobga olish kerak. Har bir guruh, unga yuklatilgan vazifani bajarish uchun ajratilgan vaqt qancha bo'lsa, shuncha vaqt faoliyat ko'rsatadi. Albatta, bir nechta o'quv mashg'uloti paytida ishlashni talab qiladigan muommali tadqiqotni bajarish vazifasi qo'yilgan bo'lsa, unda ushbu guruh bir nechta darsda faoliyat ko'rsatadi. Vaqt tugashi bilan, guruh hisobot beradi va o'z faoliyatini tugallaydi.

Guruhlar doimiy tarkibda faoliyat ko'rsatsa, guruhda ishlash mazmunini buzilishga olib kelishi mumkin. Jamoa uchun maksimal samara bilan guruhdagi har bir a'zoning o'qish imkoniyatlari amalgam oshishi maqsadida, guruhda ishlash, batcha ta'lim oluvchilarni faolligini, mutanosib rivojlanishini ta'minlashi zarur.

Shuning uchun, o'quv yutuqlariga mos ravishda shakllanadigan guruhlar, frontal o'tkaziladigan mashqlardan so'ng, mustahkamlashning boshlanishi bilan deyarli bir paytda tuzilishi mumkin. Ayirim paytlarda ta'kidlashdiki, bir xiltarkibli guruhlarni tuzish nazoratni tashkil qilish paytida foydali bo'lib, ta'lim oluvchilar erishgan darajani hisobga olish imkonini berar ekan. Lekin, bu holda, nazoratning mohiyati yo'qoladi: chunki u, ta'lim oluvchining har biri qaysi darajaga erishganligini aynan aniqlash uchun kerakdir.

Rivojlantirish guruhlari. Uchinchi tipdagi guruhlar quyidagi nazariyaga to'g'ridan-to'g'ri mos keladilar: ancha yuqori darajadagi ta'lim oluvchilar, yonidagi ancha past darajadagi rivojlangan ta'lim oluvchilarning atrofida xizmat qiladi. Buning oqibatida, past darajada rivojlangan ta'lim oluvchilar keyingi bosqichga ko'tariladilar. Shu tufayli ham, ushbu tipdagi guruhlarning nomi-rivojlantirish guruhi deyiladi.



O'quv falari bo'yicha maslahatchilar - o'z o'ртоqlariga yordam berish ishtiyoqini bildiruvchi, fanni yaxshi o'zlashtirish va unga qiziquvchi ta'lim oluvchilardir.

Guruhlardagi mashg'ulotlarni samarali o'tkazish uchun, biz, maslahatchilar bilan muntazam ravishda shug'ullanishimiz, ya'ni: ularning bilimlarini sifatini tekshirib turishimiz, uslubiy maslahatlar berishimiz kerak va hokazo. Ularni tayorlash uchun zarur bo'lgan, ayirim vaqt xarajatlari katta pedagogik yutuqlar bilan to'ldiriladi.

Guruhning vazifasi, to'g'ridan-to'g'ri guruh etakchisi yoki ta'lim oluvchining rahbrligi ostida bajariladi. Guruh a'zolaridan bittasini etakchi (skiper, tashkilotchi) etubtayinlang. Uni, teng ravishda, o'z fikrini aytmaydigan va past natijalar ko'rsatuvchi yoki yaxshi o'zlashtiradigan va faol ta'lim oluvchilarning ichidan tanlang.

O'quv jamoasining etakchisi guruh etakchisi rolini bajarmasligi kerak. Barcha o'quvchilar, ytakchining rolini tushunishiga iqror bo'ling. U, tuli funksiyalarni bajarishi mumkin, lekun, doimo, barcha o'quvchilarni ishni bajarishda qatnashishi ustidan nazorat qilishi kerak.

Etakchilarga, ularning roli, nafaqat guruh nomidan yakun yasashdan iborat emasligini tushunishlariga yordam berish darkor; ularga, guruh vazifalarini bajarish usullari, guruhning har bir a'zosini individual ulushi to'g'risida gapirib berish kerak.

Rollarni belgilashda, ta'lim oluvchilarning kuchli va kuchsiz tomonlarini hisobga oling. Ishni shunday tashkil qilingki, har bir o'quvchi guruh ishining natijalariga ta'sir ko'rsata olsun. Shuning uchun, turli vazifalarni bajarish pautida ularning roli almashib tursin.

Vazifani bajarish davrida o'zlashtirilgan materiyallarga taaluqli testlarni tayorlab qo'yishingiz mumkin. Yoki har bir guruh, boshqalar ham materiyalning ushbu qismimi o'zlashtirganini aniqlash uchun savollar tayorlashi mumkin. Bunda, test topshirishga tayorgarlik paytida, guruh a'zolarining bir-birlariga yordam berishlariga ruxsat berin.

Musiqa ta'limida qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning samaradorligini o'lchash mezonlari soha bo'yicha ta'limni davlat standartlari va o'quv dasturlarini mazmunidan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi.

Pedagogik texnologiyalarning samaradorligi musiqiy ta'limni ma'lum maqsad asosida, shuningdek, maqbul shakl, usul va vositalar yordamida tashkil etilishi bilan ta'minlanadi. Jumladan: texnik vositalar, kompyuter va boshqa musiqiy cholg'ular uslublari, ko'rgazmali jihozlar, amaliy mashg'ulotlar, pedagogik va psixologik vositalar, ilg'or o'qituvchilarning ilg'or tajribalari, darslarning noan'anaviy shakllari, baholashning yangi tizimi kabilar pedagogik texnologiyalar samaradorligini aniqlashning muxim mezonlari bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchi solfedjio mashg'ulotlarida mavzuni qaysi interfaol metod yoki ilg'or pedagogik texnologiyalarini qo'llashini oldindan belgilab olishi lozim va shu texnologiyani qo'llashda kerakli bo'lgan ko'rgazmali qurollarni tarqatma materiallarni oldindan tayyorlab kelishi zarur. Bir mashg'ulotni o'zida ber necha metod qo'llash mumkin. Masalan, o'quvchilar mashg'ulotga kirishdan oldin ularni guruhlariga ajratib ishlash maqsadida "Universal" pedagogik texnologiyadan foydalanish uchun "6 x 6 x 6" usulini qo'llab guruhlariga ajratiladi. Keyinchalik musiqiy diktant yozishda uning turlaridan biri aniqlanadi.

Guruhlar taqsimlangandan keyin, har bir guruhga nom beriladi. Bu nomlar yoki belgilar o'qituvchi tomomnidan oldindan tayyorlangan ko'rsatkich doskalar yoki qog'ozga yozilgan bo'ladi. Bunday belgilar guruhlariga o'z faoliyatini nazorat qilishda yordam beradi. Birinchi guruh skripka kaliti, ikkinchi guruh bas kaliti, uchinchi guruh alt va to'rtinchi guruh tenor kaliti bilan nomlanishi mumkin.

Diktant turlari bu musiqiy kuyli diktant yozish, garmonik diktant va ritmik diktant bo'lishi mumkin. Shulardan birini tanlagan holda oldindan matni o'qituvchi tomomnidan belgilanadi va guruhlariga ajratilgan o'quvchilarni diqqatini anashu diktant yozishga qaratiladi. Diktant yozish qoidasi bo'yicha belgilangan nomuna bir necha bor takrorlanib diktantni dirijerlik qilib eshitib uning o'lchovi, ladi, tonalligi aniqlanadi.

## XULOSA

Musiqa darslari o'z tabiatiga ko'ra san'at darsidir. Uni rang-barang sermazmun va qiziqarli tashkil qilish har bir o'qituvchidan katta pedagogik mahorat talab etadi. Bolalarni musiqa san'atiga o'rgatish juda murakkab, hamma murakkablik shundaki, ularni qiziqitirmay turib chinakkam san'atga o'rgatish mutlaqo mumkin emas.

Har tomonlama kamol topgan, hozirgi davr talabiga javob beradigan faol shaxsni tarbiyalash va shakllantirish vazifasini hal etishda musiqa madaniyati muhim vositalardan biri ekanligiga tayangan holda bo'lg'usi musiqachilarga puxta bilim berish ularni amaliy jihatdan yaxshi tayyorlash nihoyatda muhimdir.

Musiqiy nazariy bilimlar bunda katta ahamiyatga ega bo'lib, musiqaning elementar nazariyasi, solfedjio fanlari asosiy hisoblanadi. Barcha musiqa fanlari nazariy fanlar bilan bog'liq holda olingan nazariy bilimlariga, ko'nikmalariga asoslanib ta'lim beriladi, o'z navbatida elementar bilim va eshitish ko'nikmalari mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ishlashga, musiqa asarni ijro etayotganda uning mazmunini to'g'ri ochib berishga yordam beradi.

Solfedjio mashg'ulotlarida musiqa nazariyasi bilan bog'liq holda unda olingan bilimlarga tayangan holda amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Mashg'ulotlar jarayonida nota bilan kuylash, kuyli, ritmik diktantlar yozish, garmonik tuzilmalar tuzish, tahlil qilish, jo'rsiz kuylash kabi shakl va usullari o'quvchilarning musiqiy idrokini, qobiliyatini shakllantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.<sup>18</sup>

Solfedjio mashg'ulotlari bo'lg'usi musiqachi uchun nihoyatda zarur, ayniqsa bu mashg'ulotlarda kerakli natijaga erishish uchun diktantlarning o'рни ahamiyatlidir. Solfedjio mashg'ulotlarini olib boruvchi o'qituvchilarda uchraydigan kamchiliklardan biri bu darsni haddan tashqari nazariy bilimlarni o'rgatishga ko'p vaqtni ajratishlarida.

Har bir mashg'ulotni olib borishda rejalashtirilgan vazifani vaqtini aniq belgilash zarur, aks holda olingan nazariy bilimlar amaliy o'zlashtirish vaqti kam qoladi, buning natijasida o'quvchi kerakli ma'lumotga ega bo'lmaydi.

Solfedjio mashg'ulotlarni samaradorligini oshirishda milliy o'zbek ijodi va

---

<sup>18</sup> Mamirov K.A. Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi /to'plam/ 148-149 bet

maktab repertuaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu tariqa o'zbek milliy musiqaning "og'zaki" va "yozma" an'analari ila yuzaga kelgan ardoqli qadriyatlarining o'zaro bog'lanishga, qolaversa boyitishiga shart sharoitlar yaraladi.

Shu tarzda hozirgi zamon maxsus musiqa ta'limi tizimida mavjud imkoniyatlarni yanada kengaytirib, ularni maqsadli safarbar qilish borasida ibratli tajriba orttiriladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Baltaeva G.I. Solfedjio T.2006
2. Ibragimov O., Yunusov R. Solfedjio T.2004
3. Kalmikov B., Fridkin G. Solfedjio 1-qism Odnogolosie M.1972.
4. Mamirov K.A. Uzlaksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi /to'plam/
5. Norxo'jaev N., Nurmatov H. Solfedjio T.2002
6. Rajabova Nodira Fattoh qizi Solfedjio Buxoro 2002
7. Tolipov U. Pedagogik texnologiyalar T. 2005
8. Fridkin G. Muzikalnie diktanti M.1973
9. Fridkin G. Chtenie s lista na urokax solfedjio M.1982
10. Xamroev I.X. Musiqa diktantlari T.1980
11. Xamroev I.X. Bir ovozli solfedjio T.1980
12. Yunusov R. Solfedjio T.2004

#### Internet manzillar

<http://www.ZiyoNET>

<http://www.Google.ru>.

<http://Yandex.ru>